

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLARNI O'QITISHNI MODELLASHTIRISH MUAMMOLARI

Inoyatov Ikrom Shaxrilloyevich

*"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti "Suv
ta'minoti va tejamkor sug'orish texnologiyalari" kafedrasi v.b dotsenti*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida texnika oliy ta'lismuassasalarida umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'qitishni modellasshtirish orqali kasbiy faoliyatga o'rgatishni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, metod, kasbiy faoliyat, ta'lismetodlari, axborotlinamoyish etish metodi, komponent, dasturiy ta'minot, innovatsion, kreativ.

Аннотация: В статье даны рекомендации по развитию подготовки к профессиональной деятельности путем моделирования преподавания общих и профильных предметов в технических вузах Республики Узбекистан.

Ключевые слова: технология, метод, профессиональная деятельность, образовательные методы, метод информативного представления, компонент, программное обеспечение, инновационный, творческий.

Abstract: The article gives recommendations on the development of training for professional activities by modeling the teaching of general and specialized subjects in technical higher education institutions in the Republic of Uzbekistan.

Key words: technology, method, professional activity, educational methods, informative presentation method, component, software, innovative, creative.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv jarayonida dunyo mamlakatlari oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zamonaviy sharoitida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ijtimoiy hayotning barchabo'g'inlarida ish beruvchilar tomonidan mutaxassislarga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi ularning kasbiy tayyorgarligi va malaka darajasi masalasini yangicha ko'rinishda qo'ymoqda. Bugungi kunda ayniqsa ta'lismosasida "Sifat" ta'lim siyosatida asosiy kategoriya aylandi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitishni modellasshtirish muammosi dolzarb bo'lib qoldi. Ilmiy-pedagogik va didaktik-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "Model" atamasi umum ilmiyxususiyat kasb etib, modellasshtirish fanning ko'plab sohalarida, jumladan, pedagogikada ham samarali tadqiqot metodiga aylandi.

Obektlarning har xil shakldagi barcha namunaviy ko'rinishdagi modellari obektlarning o'ziga xosligini, o'xshashligini, taqlid qilishini talab etadi. Zeyer

E.F va Simanyuk E.E lar o‘z tadqiqotlarida “ Olingen model keyingi o‘rganish obekti haqida yangi ma’lumotlarni beradi, bilimga boshqa yo‘llar bilan erishib bo‘lmaydigan qonunlarni o‘rnatishga imkon beradi” deb takidlaydilar [61].

Ilmiy pedagogik, metodik, didaktik adabiyotlar taxlili “Model” atamasi ko‘p ma’nolariga ega degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Mamlakatimizda va xorijda mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlarda modellashtirishni ko‘rib chiqishga o‘tishdan oldin modellashtirishning gnoseologik ahamiyati masalasiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz va birinchi navbatda “model” atamasining ma’nosiga oydinlik kiritamiz. “Model” atamasi (lotincha "modulus" - o‘lchov, namuna, meyor) manosini bildirib, deyarli barcha yevropa tillarida namuna yoki prototip yoki boshqasiga o‘xhash narsani bildirish uchun ishlatalilgan. Qadimgi davrlar tabiiy fanlarida “model” atamasi haqiqatning u yoki bu qismini soddalashtirilgan (sxemalashtirilgan yoki ideallashtirilgan) va vizual shaklda takrorlaydigan aqliy yoki amaliy jihatdan yaratilgan tuzilmani anglatgan.

Bugungi kunda zamonaviy faylasuflarning asarlarida “model” tushunchasining turli xil ta’riflari ko‘rib chiqiladi. Ulardan ba’zilari obektni ko‘rsatish qobiliyati kabi muhim va asosiy funksiyaga ega emas. “Model” tushunchasining boshqa ta’riflarining afzalligi shundaki, ko‘rsatilgan xususiyat ya’ni obyektni ko‘rsatish ularning asosiga joylashtirilgan.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, ushbu tadqiqotda biz modelning quyidagi ta’rifini qabul qilamiz: “Model - bu aqliy ravishda tasvirlangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan o‘rganish obektini ko‘rsatish yoki takrorlash orqali ushbu obekt haqida yangi ma’lumotlarni beruvchi tizimdir”. Modelning ushbu ta’rifi to‘rtta xususiyatni o‘z ichiga oladi:

1 - model aqliy ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizimligi;

2 - o‘rganish obektini takrorlashi yoki aks ettirishi;

3 - obektni almashtirishga qodirligi;

4 - uni o‘rganish obekt haqida yangi ma’lumotlarni berishi.

Taxlillar natijasida modellashtirish va model bir-biriga bog‘liq ikkita tushunchalardir degan fikrga kelamiz. Modellarni qurish va o‘rganish obektlar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘rganishni ta’minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda modellashtirish bilishning yo‘llaridan biri sifatida ko‘rib chiqilganligini, modellarni ilmiy tadqiqotlardagi vazifalari va uni qo‘llash xususiyatlari o‘rganilganligini ko‘rshimiz mumkin.

Ta’lim sohasida va zamonaviy pedagogikada modellashtirish mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish yo‘llarini izlash bilan bog‘liq.

Biroq, bugungi kunda pedagogikada modellashtirish usuliga aniq munosabatlar mutaxassislar tomonidan bildirilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu sohada uni qo‘llash imkoniyatlari haqida bahslar mavjud. Shu bilan birga, shuni aytish mumkinki, modelli yondashuv pedagogikada tobora ko‘proq tarafdarlarga ega bo‘lmoqda.

V.S.Bezrukova o‘z tadqiqotlarida “pedagogik tadqiqotlarda modellashtirish vizuallashtirishning eng yuqori va maxsus shakli, axborotni tartiblash vositasi sifatida ishlaydi, bu esa o‘rganilayotgan hodisaning mohiyatini chuqurroq ochib berishga imkon beradi”-deb ta’kidlaydi. [31, 11-b]. Bir qator xorijiy mamlakatlardagi mutaxassislarining asarlarida modelning umumiy ta’rifi yo‘qligi qayd etilgan.

B.G.Ananov o‘z tadqiqotlarida modellarning funksiyalarini tavsiflash orqali modeldan foydalanish nimani anglatishini aniqlash mumkinligini, lekin model nima ekanligini aniqlashning imkon yo‘qligini qayd etadi [20]. Ushbu sohada xorijiy adabiyotlarning kamligi ma’lum darajada Rossiya federatsiyasi mutaxassislarining ayrim asarlarida mavjud bo‘lgan umumlashtirishlardan foydalanish bilan qoplanadi. Masalan, V.E.Shteynberg o‘z tadqiqotlarida modelni [152, 6-b] asosan lingvistik mazmunda ko‘rib chiqib, ularda “model” atamasi o‘ttizta ma’noda qo‘llanishini aniqladi. V.E.Shteynberg tomonidan qilingan sharh biroz yuzaki bo‘lsa-da, bu yuqorida qayd etilgan “model” atamasining noaniqligini yaxshi tasvirlaydi.

Shu bilan birgalikda bizga ma’lumki pedagogik modellashtirishning nazariy jihatni S.I.Arhangelskiy [23], A.A.Verbitskiy [44, 46], V.O.Meskov [94] va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu mualliflar o‘z tadqiqot ishlarida ularning modellashtirish metodologiyasi sohasidagi masalalarni ko‘rib chiqdilar, ularning mazmuni va yondashuvlarini ochib berdilar. Shunday qilib, S.I.Arhangelskiyning fikriga ko‘ra, modellashtirish jarayoni matematik usullardan foydalanish bilan keng bog‘liq. Muallifning fikricha, matematik usullardan foydalanish metodologik xarakterdagi nazariy tadqiqotlarda katta samara beradi [23]. Matematik modellashtirishning foydaliligi modelning amaliy qiymati bilan belgilanadi. S.I.Arhangelskiy “ilmiy modellashtirish usuli obektning ko‘rinish, anqlik va obektivlik tamoyillariga asoslanishi sharti bilan umumlashtirilgan, mavhum, ideal modelni yaratishga imkon beradi” deb ta’kidlaydi.

An’anaviy ma’noda model va modelni o‘rganish o‘rganilayotgan obekt yoki hodisaning tuzilishi va munosabatlarining o‘xshashligini dalillar bilan aniqlashni talab qiladi. S.I.Arhangelskiy o‘z tadqiqotlarida modellashtirish jarayonini o‘rganar ekan, asl nusxa va model o‘rtasida ma’lum munosabatlar

o'rnatalidi, buning asosida obektning muayyan tomonlarini o'rganish mumkin degan xulosaga keladi. Muallifning fikricha, bunday munosabatlar modellashtirishda o'xshashlik nazariyasiga asoslanadi, bu esa tadqiqotning nazariy va amaliy imkoniyatlarini kengaytiradi [23].

Rus olimi A.A.Verbitskiy o'z tadqiqotlarida zamonaviy ta'lism paradigmasida oliv ta'lism muassasalarining o'quv jarayonini ilmiy o'rganishda modellashtirishdan foydalanishning turli yondashuvlarini tahlil qilib, modelni o'rganishni mutaxassislar tayyorlash tizimining turli komponentlarini muvofiqlashtirish vositasi deb hisoblaydi. Muallif modellashtirish va o'quv jarayoni o'rtasidagi doimiy bog'liqlik borligini ta'kidlab, bog'liqliknинг quyidagi yo'nalishlarini taklif qiladi:

- gnoseologik yo'nalish;
- asl nusxa o'rniga modeldan foydalanish;
- axborotli model;
- tahliliy;
- umummetodologik;
- psixologik [44].

V.I.Mixeyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda u majmuaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy materialini umumlashtirishga asoslanib, oliv ta'lism pedagogikasida modellashtirish imkoniyatlarini ochib beradi. Shu bilar birga muallif modellashtirishning ikkita asosiy yondashuvini ajratib ko'rsatadi. Birinchi yondashuv- pedagogik hodisani tuzilmalashtirish va soddalashtirish bo'lib, bu ko'p o'lchovli statistik tahlilning turli usullaridan foydalanishga imkon beradi. Modellashtirishning ikkinchi yondashuvi - algoritmik modellardan foydalanish. Demak pedagogik tadqiqotlarda o'rganilayotgan pedagogik hodisalarni tizimlashtirish, soddalashtirish va modellardan foydalanish tadqiqot natijalarini asoslanganlik darajasini oshiradi.

V.I.Mixeyev oliv ta'limga pedagogik fanlarning uslubiy ilmiy didaktik rivojlanishi uchun har qanday psixologik-pedagogik tadqiqotda model konstruktsiyalari allaqachon o'rnatilgan pedagogik tushunchalarga mos kelishi, ularning mazmuni bilan bog'liqligi muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Yuqoridagi familiyalari zikr etilgan mualliflarning "model", "modellash" tushunchalarini aniqlashga doir qarashlari pedagogika metodologiyasi va pedagogik tadqiqot usullari sohasidagi murakkab muammolarni hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi deb xulosa qilishga asos bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 oktabr. PF-5847-son Farmoni www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019yil 6 sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi, PF-5812-sonli Farmoni.
3. Avazboyev A.I. O‘quv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va professional ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish, Ped. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2001. – 124 b.
4. Azgaldov G.G., Kostin A.V. Intellektualnaya sobstvennost, innovatsii i kvalimetriya // Ekonomicheskiye strategii, 2008. - №2. – S.162 – 164.
5. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУФОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОК АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
6. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
7. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G ‘O ‘ZANI SUG ‘ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
8. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
9. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
10. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
11. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
12. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
13. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309

14. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб суғориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.
15. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>
16. Фазлиев Жамолиддин, Тожиев Шерзод, & Холиқов Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. *Uz-Conferences*, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>
17. J.Sh.Fazliev., Sh.M.Tojiev., Sh.D.Khalikov. (2024). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. *Uz-Conferences*, 1(1), 504–509. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/107>
18. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G‘O‘ZANI SUG‘ORISH TEXNOLOGIYASI. *Uz-Conferences*, 1(1), 514–519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>
19. Khamidov, M. K., Juraev, U. A., Buriev, X. B., Juraev, A. K., Saksonov, U. S., Sharifov, F. K., & Isabaev, K. T. (2023, February). Efficiency of drip irrigation technology of cotton in saline soils of Bukhara oasis. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012007). IOP Publishing.
20. Sharifov Firdavs, & Mirzamurotov Mirshod. (2024). G‘O‘ZA O‘SIMLIGINI YETISHTIRISHDA SUV TEJAMKOR SUG‘ORISH TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH. *Uz-Conferences*, 1(1), 461–464. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/98>